



## THE ROLE OF THE MEDIA IN ENSURING THE DEVELOPMENT AND TRANSPARENCY OF THE LITERARY LANGUAGE

**Jaqsimuratova Guljahan Jenisbay qizi**

Student of Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11409593>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2024

Online: 31<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Literary language, media language, press language, language culture, language norm, tautology.

### ABSTRACT

*This article discusses the role and influence of media language, especially the language of the press in the development and progress of literary language, as well as the priority tasks assigned to journalists in this process.*

## ADABIY TILNING RIVOJLANISHI VA SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA MEDIANING O'RNI

**Jaqsimuratova Guljahan Jenisbay qizi**

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11409593>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2024

Online: 31<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Adabiy til, OAV tili, matbuot tili, til madaniyati, til me'yor, tautologiya.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada adabiy tilning rivojlanishi va taraqqiy etishida OAV tili ayniqsa, matbuotning tilining o'ri va ta'siri, shuningdek, bu jarayonda jurnalistlar oldiga quyiladigan ustuvor vazifalar xususida so'z boradi.*

OAVning qudrati tuyg'ularimizga tafakkurimizga, qadriyatlarimiz tizimiga xatti-harakat va fe'l-atvorimizga ta'sir etadi. Ushbu ta'sir shaxs rivojiga va dunyo qarashida ijobiy yoki salbiy iz qoldirishi mumkin.

Til bilan bog'liq va unga putur yetkazuvchi illatlar haqida gapirganda barcha medialar ayniqsa, telkanalarda efirga uzatilayotgan dasturlarga alohida to'xtalishimiz lozimdir. Garchand "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ommaviy axborot vositalari o'z faoliyatini "Davlat tili haqida»gi qonunga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan, barcha OAVni ham bu talablarga rioya etyapti deb aytoilmaymiz.

Rus tadqiqotchisi V.Agravonskiy gazeta sahifasidagi xatoni til fo'jeasi deya ta'riflagan. Xato gazetda bosildimi minglab o'quvchilar tomonidan u haqiqat sifatida qabul



qilinadi. Shunday ekan, tahririyat maqolalarning nafaqat mazmuni, balki imloviy, stilistik kamchiliklardan xoli bo'lishi uchun ham mas'uldir.

Tadqiqotimizda gazetalarning nafaqat orfografik, punktuatsion balki ulsubiy va leksik kamchiliklarni tahlilga tortdik. Shuningdek, jumla tuzish bilan bog'liq xatolar maqola mazmunini o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot obiekti sifatida milliy matbuotimiz yetakchi nashrlaridan bo'lmish "Hurriyat", "Xalq so'zi", "Ma'rifat" gazetolari tanlab olindi.

So'zning noto'g'ri qo'llanishi jumlaning umumiy mazmuniga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Misol uchun: *"Bandlikka ko'maklashuvchi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan ijtimoiy xizmatga olingan 17,6 mingdan ziyod yolg'iz keksalar sog'lomlashtirildi"* [1].

Mazkur maqolada "xizmat" so'zining noo'rin qo'llanishi natijasida «keksalar xizmatga olingan» degan ma'no kelib chiqqan. Yana bir misol: *"Shuningdek, bugun yurtimizdagi yetakchi klinika va tibbiyot markazlarida eng ilg'or texnologiyalar yordamida noyob operatsiyalar amalga oshirilayotgani alohida e'tirofga loyiq"* [2]. Bu erda ham «noyob» so'zi «opertasiya»ga nisbatan qo'llanilishi leksik xato hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, gazeta jummalari o'rtacha 8-14 so'zdan iborat bo'lganda gina o'quvchi tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi. Qolaversa, dunyoning yetakchi media-ekspertlari gazeta tilida ko'proq sodda gaplardan foydalanishni maslahat berishadi. Biroq aksariyat nashrlarimiz uchun asosan qo'shma va murakkab-qo'shma gaplarni qo'llash xosdir. Masalan, «Yangi O'zbekiston» gazetasida berilgan «Totuvlik va farovonlik garovi» [3] sarlavhali maqolada jami 41 gap ishtirok etgan bo'lib, ulardan 4 tasigina sodda, qolgan 37 tasi qo'shma va murakkab gaplardir.

Zamonaviy matbuot tilida ayrim so'zlarning noto'g'ri varianti shu qadar ommalashganidan, ularning asl mazmuni unutilib ketgan. Ana shunday so'zlardan biri – "tadbir" hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ko'ra "tadbir" - chora, iloj, yo'l-yo'riq, harakat tarzi»dir. Biroq matbuotda "tadbir" so'zi "yig'ilish", "majlis" ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, *"Tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan atroflicha javob oldi"* [4].

Jumla tuzish bilan bog'liq xatolar asosan gap bo'laklari tartibining buzilishi bilan bog'liq. Shuningdek, matbuot sahifalarida butunlay xato tuzilgan jumlar uchraydi. Masalan: «Millat zakosida barqarorlashgan « yaxshini begonaga berma» hikmati xuddi Sarsengul hayotida o'z dalolatini topgandek taassurot uyg'otadi» [5]. Yana shuningdek, "Erta tongdan yana «ishim»deya shoshayotgan bir ayol faolligi qanchadan-qancha qishloqlar mushkulini oson qilishga xizmat qildi» [6].

Gazetalardagi imloviy kamchiliklar ko'p bora tanqid ostiga olingan. Shunday so'zlar borki, ularning to'g'ri muqobilidan xato varianti ommalashib ketgan. Bunday so'zlar sirasiga «tatqiq» (aslida tadqiq), «ohangrabo (aslida ohanrabo), poyafzal (aslida poyabzal), «hech qisiyo'q» (aslida hechqisi yo'q), "avf" (aslida afv) va boshqalarni kiritish mumkin.

Achinarlisi shundaki, o'zbek adabiy til qoidalariga rioya etmaslik holati uchun hech bir OAV javobgarlik va ma'suliyatni his qilmayapti. Davlat tili haqidagi qonun talablarining buzilganligi uchun huquqiy javobgarlikning mavjud emasligi bu boradagi xatolarning kengroq yoyilishiga sabab bo'lmoqda.



O'rganishlarga ko'ra adabiy qoidalariga rioya etmaslik bilan bog'liq nuqsonlar ko'pchilik hollarda hududiy gazetalar faoliyatida yo'l qo'yilmoqda. Bu esa mazkur nashrlarda kadrlar bilan bog'liq muammo mavjudligidan dalolat beradi.

## References:

1. Xalq so'zi // G'amxo'rlikdan obod ko'ngillar. 10.10.2015 .
2. Hurriyat. // Ko'zlarimiz nurafshon bo'lsin. 10.06.2015
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 19.11.2021
4. Hurriyat. //Tadbirkorlar manfaatining ishonchli himoyasi. 15.02.2021
5. "Ustoz joli" gazetasi. 13.03.2021
6. "Ustoz joli" gazetasi. 13.03.2021
7. [МЕДИА МАТНЛАРИ САРЛАВҲАЛАРИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР.](#) ГС Сеитназарова - Journal of Universal Science Research, 2023
8. [PRESS LANGUAGE IS A QUALITY OF LITERARY AND ORAL LANGUAGE SIZE.](#) G Seitnazarova - Конференции, 2020
9. [Relativity of the Genre, Theme, Idea and Image in Artistic Expression.](#) SG Suxanatdinovna.